

## “SUG'D” ATAMASI VA UNING MOHIYATI XUSUSIDA

*Babanov Mansur*

*Termiz davlat universiteti Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha)*

*II kurs magistranti*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Zarafshon vohasida joylashgan vatanimiz davlatchiligining muhim tarkibiy qismi hisoblangan Qadimgi So'g'd atamasi, aholisi va hududining tarixiy geografiyasi haqida manbalar va mazkur hududning ushbu davri bilan shug'ullangan jamiki tadqiqotchi tarixchilarning asarlarining tarixi batafsil yoritilgan.*

**Kalit so'zlar :** voha davlati, Gava o'lkasi, xitoy rohibi Syuan-tszan, Tan sulolasi yilnomasi, Yaksart, savdo yo'llari, So'g'iyona, Darband devori, yuechji qabilasi,

Ma'lumki, So'g'd miloddan avvalgi I mingyillikning boshlarida O'rta Osiyoda shakllana boshlagan ilk davlatlar (“shahar – davlat”, “voha davlati”) dan biri sifatida qadimiy eroniy bitiklarda Suguda, yunon manbalarida Sogdiana shaklida tilga olinadi.

<swγδ-> /suyδ-/; <sywδ-> /səyud-/ shakllarda yozilgan “So'g'd” qadimgi yozma manbalarda suyda (Avesto), Σογδιανή (Sogdia – yunon), Sugda yoki Suguda (qadimgi forsiy), šu-ug-da (elam), su-ug-du (akkad) tarzida qayd etilgan. “Avesto” kitobida “Gava o'lkasida sug'diylar yashaydi” deb keltiriladi. Antik davr manbalarida ham Sogdiane o'lkasi (Sug'd) va sogdianoi ahli (sug'diy) haqida tafsilotlar keltirilib, A.Ataxodjaev o'z tadqiqotida R.Frayga suyangan holda, sug'diylarning bu hududga joylashuv mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmi va I mingyillik boshlari deb keltiradi.

So'g'd konfederatsiyasi hududi O'rta Osiyoda eng muhim hududlardan bo'lib bu erda yaratilgan madaniyat Sharqiy Turkiston, Xitoy, Eron, Hindiston madaniyatlariga taʼsir etgan. Ta'kidlash joizki, bugungi kun tarixshunosligida Sug'd konfederatsiyasi chegaralari, ayniqsa janubiy chegaralari to'g'risida bahslar ko'zga tashlanadi. V.A.Livshits o'z tadqiqotlarida Strabon ma'lumotlari asosida Sug'dning janubiy chegarasi Oksgacha (Waxsu

– Amudaryo) va shimolda esa Yaksartning yuqori oqimigacha (qadimgi eroniy tilda Yax sarta – «Tez oquvchi (?)», Sirdaryo) bo'lgan deb keltiradi.

O'rta asr arab-fors tarixchi va sayyohlari Sug'd deb Zarafshon vohasining markazidagi Samarqandni yoki butun vohani hamda janubiy Sug'd deb Qashqadaryoni (Kesh va Naxshab) keltiradilar.

Aslida Sug'd geografik jihatdan bugungi O'zbekiston hududlarining Zarafshan va Qashqadaryo hududlari bo'ylab joylashgan Samarqand, Buxoro, Kesh, Naxshab vohalaridan iborat markaziy bo'g'inini tashkil etadi. Ammo manbalarda V – VIII asrlarga oid Sug'dning geografik hududlari haqida baʼzan bir-birini istisno etuvchi fikrlar etib kelgan. Masalan, xitoy rohibi Syuan-tszan (629) “Sug'd” tushunchasini juda keng hududlarga nisbatan tadbiq etgan<sup>6</sup>. Uning ma'lumotlaridan ayon bo'lishicha, Chu daryosi vodiysidan to Qarshi vohasini Sherobod vohasidan ajratib turuvchi tog' dovonidagi Temir darvozagacha (Darband) “Sug'd” deb atalgan.

629 – 630 yillarda O'rta Osiyo orqali o'tgan Syuan-tszan bu hududning geografiyasi to'g'risida muhim ma'lumotlar yozib qoldirgan. Unga ko'ra, Sug'd (xitoycha Suli) Suyobdan to Keshgacha (Qashqadaryo vohasi) bo'lgan hududda joylashgan. Bu hudud aholisining tili va yozuvi ham sug'diycha bo'lgan<sup>65</sup>. Bundan ma'lum bo'ladiki, VII asrning birinchi yarmida sug'diy til va yozuv Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo vohasi, Ustrushona va Chochda keng tarqalgan. Bu haqda Chochda zarb etilgan tangalar va saqlanib qolgan toponimlar orqali ham bilish mumkin.

Xuddi shunga o'xshash ma'lumot 726 yilda O'rta Osiyoda bo'lgan boshqa bir xitoy sayyohi Xoy Chao tomonidan keltirilgan. U O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ini til xususiyatlariga qarab olti geografik hududga bo'ladi. Ular: Buxoro (An`) vohasi, Ustrushona (Tsao), Kesh (Shi), Choch-Iloq (Shi-lo), Maymurg' (Mi) va Samarqand (Kan) bo'lgan. Ushbu hududlardan sug'diy yozma yodgorliklarning topilishi ham buni tasdiqlaydi.

“Sug'd” tarixiy-geografik atamasi qaysi hududlarga bog'lanishi haqida xitoy manbalari qiziqarli ma'lumotlar beradi. Xitoylar o'z davlatlarining chegaralarini xaritalarga tushirish asnosida o'zlariga qo'shni bo'lgan hududlarning nomlarini ham keltirib o'tganlar. Masalan, Xan sulolasi yilnomasida Sug'dni “Suxe” deb keltiradi va Kangyuuning bir bo'lagi sifatida ko'rsatiladi. Tan sulolasi yilnomasida esa Sug'd Shi (Kesh) bilan bir hudud deb keltiriladi.

Xulosa o'rinda mazkur atamalardan bir qismining faqatgina Markaziy Sug'd yoki Sug'd konfederatsiyasi uchun, balki uning tarkibidagi hukmdor-liklarga nisbatan ham qo'llanilayotganligi va bu masalada yakdillik yo'qligini aytish joiz. Masalan, “Samarqand podsholigi”, “Samarqand mulki”, “Samarqand hukmdorligi”, “Panch podsholigi”, “Panch mulki”, “Panch hukm- dorligi” va hokazo.

Shu bilan birga, masalaga oid yana bir muammo “Sug'd” iborasining “So'g'd”, “So'g'diyona”, “Sug'd” shakllarida uchrashi bo'lib, bu atama ham etnos nomi ham geografik ma'no kasb etishi ko'zga tashlanadi. Bu esa tarixshunoslikda muayyan chalkashliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, tadqiqotlarda ushbu so'zni ishlatishda asl ma'nona yaqin bo'lish maqsadida etnos nomi sifatida “sug'diy”, geografik o'lka nomi, ya'ni, toponim sifatida esa “Sug'd” atamasini ishlatish mantiqlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Latyishev V.V. Izvestiya drevnix pisateley o Skifax i Kavkaze // VDI. – 1947. – № 1. – S. 257-279.
2. Otaxo'jaev A. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari – B. 64.
3. Goyibov B. From the history of relations between Sogd and India / South and Central Asia: insights and commentaries // Edited by A. Sengupta, M. Rakhimov // – New Delhi: KW Publishers Pvt Ltd, 2015. – R. 75-95.
4. Livshits V.A. Drevnee nazvanie Сыг-Dar`i // VDI. – M: 2003 – №I. – S. 3-10.
5. Bartol'd V.V. Sogd / Soch. – M: 1965. – T: III. – S.487-488.
6. Rohib Xitoydan Sharqiy Turkiston, Janubiy Qozog'iston, Choch, Kan (Samarqand), Shi (Kesh), Toxariston orqali hozirgi Shimoliy Afg'onistondagi Balx, Qunduz orqali Hindistonga o'tgan. Orqaga qaytishda esa Pomir tog'lari orqali Tibet va Sharqiy Turkistondan o'tib Xitoyga kelgan (Qarang: Rtveladze E.V. Velikiy shelkovnyy put'. – Tashkent: O'ME, 1999. – S. 280).
7. Gafurov B.G. Tadjiki. ... Kn. 1. – S. 314.